XALQ DEPUTATLARI HAZORASP TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 31-mart VII-30-44-12-174-K/26 Hazorasp tumani

Xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Hazorasp tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-033-12-174-K/24-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Hazorasp tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-033-12-174-K/24-son qarori qabul qilingan.

Bugungi kunda ushbu qarorni 2-ilovasiga amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish uchun budjet parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 127,148-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga asosan xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Hazorasp tumani mahalliy budjetidan hududiy mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha 2025 yilda tasdiqlangan xarajatlar 113 mlrd 60 mln 250 ming so‘m bo‘lib, budjet parametrlariga kiritilgan o‘zgarishlardan keyin reja 153 mlrd 665 mln 570 ming so‘m, ya’ni tasdiqlangan rejaga nisbatan 40 mlrd 605 mln 320 ming so‘mga ko‘p xarajatlarni tashkil qilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Hazorasp tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari Sh.Xo‘janiyozovning budjet parametrlariga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritish yuzasidan taklifi ma’qullansin.

3. Hazorasp tumanining mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchilariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga 2025-yil davomida kiritilgan o‘zgarishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi Q.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **QURYOZOV SUXROBBEK MATCHANOVICH**

Xalq deputatlari Hazorasp tumani
Kengashining
2026-yil 31-martdagi
VII-30-44-12-174-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Hazorasp tumanining mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchilariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga 2025-yil davomida kiritilgan o‘zgarishlar

(ming.so‘m)

T/R	Ko‘rsatkichlar	Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Aniqlangan reja
	Jami harajatlar miqdori	**113.060.250**	**40.605.320**	**153.665.570**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	32 435 444	32 693 923	65 129 367
	shundan:			
	Mening maktabim	3 190 488	0	3 190 488
2	Madaniyat bo‘limi	1 537 234	691 225	2 228 459
3	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	5 789 852	-128 847	5 661 005
4	Sport bo‘limi	5 380 190	23 594	5 403 784
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 862 681	-268 056	1 594 625
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 393 411	1 234 011	3 627 422
7	Suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi bo‘limi	1 366 956	135 458	1 502 414
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 149 184	309 039	2 458 223
9	Hokimlik	43 006 479	5 253 313	48 259 792
	shundan:			
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	152 280	65 548	217 828
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab	23 100	0	23 100

	bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”			
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	28 638 047	1 222 000	29 860 047
	Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari	1 852 000	881 753	2 733 753
	Zahira jamg‘armasi	1 697 136	44 390	1 741 526
10	Hokimlik (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	660 885	225 593	886 478
	shundan:			
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	51 444	-16 360	35 084
	Axborot-kutubxona markazi	609 441	241 953	851 394
11	Hokimlik (Obodonlashtirish bo‘limi)	16 477 934	436 067	16 914 001